

5-SINF. TARIXDAN HIKOYALAR
CHSB-1

I variant

Sana: _____

Sinf _____

O'quvchining F.I.SH. _____

1. Berilgan ma'lumotlardan yozuvning «buyumli yozuv» turiga oid bo'lganini belgilang. (Bilish–2,5 ball)

- A) qo'rg'on rasmi marhum ko'milgan joyni anglatgan
- B) qadimgi ajdodlarimiz turli hayvonlarning rasmlarini toshlarga o'yib tushirganlar
- C) Shumer mixxati ushbu yozuvning dastlabki namunalaridan biri hisoblanadi
- D) miqdorni belgilashda, biror xabarni uzoq masofaga yetkazishda qo'llanilgan

2. Akvalangni kim ixtiro qilgan? (Bilish–2,5 ball)

- A) Jan Jak Russo
- B) Muso Saidjonov
- C) Martin Bexaym
- D) Jak Iv Kusto

3. Muchal yili hisobida mavjud bo'lgan hayvonni belgilang. (Bilish–2,5 ball)

- A) tipratikon
- B) mushuk
- C) yo'lbars
- D) echki

4. Quyidagilardan moddiy manbalar berilgan qatorni toping. (Qo'llash – 4,5 ball)

1. Qadimgi odamlar yashagan makon; 2. Qoyatoshga yozilgan bitiklar; 3. Qadimgi odamlar turar-joylari; 4. Urxun-Enasoy yozuv namunalari qoldiqlari; 5. Zeb-ziynat buyumlarining qoldiqlari.

- A) 1, 3, 5
- B) 1, 2, 3
- C) 2, 4, 5
- D) 1, 3, 4

5. Mavzu yuzasidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi fikrlarga “ha” yoki “yo‘q” deb javob bering. (Qo'llash – 4,5 ball)

№	Mulohaza uchun ma'lumot	Ha	Yo'q
1	Xitoydan topilgan sinantrop odamining aql-farosati tabiiy olovdan foydalanishga yetmagan		
2	Sinantrop odami yashin tufayli o'rmon yong'inlari kelib chiqqanda olovni saqlab qolishni o'ylab topgan		
3	Sinantropga tengdosh odam suyak qoldiqlari Farg'ona vodiysining Selung'ur g'oridan topilgan		
4	Insoniyatning sinantropdan keyingi ajdodi pitekantrop odam deb ataladi va u Indoneziya hududidan topilgan		

- A) 1-yo'q, 2-yo'q, 3-ha, 4-ha
- B) 1-ha, 2-yo'q, 3-yo'q, 4-ha
- C) 1-yo'q, 2-ha, 3-ha, 4-yo'q
- D) 1-ha, 2-ha, 3-yo'q, 4-yo'q

6. Quyidagi yil hisoblarini o'zaro moslashtiring. (Qo'llash – 4,5 ball)

1. Hijriy yil hisobi; 2. Muchal yil hisobi; 3. Milodiy yil hisobi.

a) Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning Makka shahridan Madina shahriga ko'chib o'tgan vaqti asos qilib olingan;

b) 1-yanvar yil boshi deb tan olinadi;

c) 12 yillik davriy yil hisobidir .

- A) 1-b, 2-a, 3-c
- B) 1-a, 2-c, 3-b

C) 1-c, 2-b, 3-a

D) 1-a, 2-b, 3-c

7. Tarixiy-mantiqiy ketma-ketlik (moslik) NOTO‘G‘RI berilgan javobni toping. (Qo‘llash – 4,5 ball)

A) Lasko – Fransiya – qoyalarga o‘yib ishlagan surat

B) Kromanyon g‘ori – Fransiya – qoyalarga o‘yib ishlagan surat

C) Neandertal vodiysi – Germaniya – qadimgi odam qoldiqlari

D) Ko‘lbuloq – O‘zbekiston – kromanyon odamlar zamondoshlarining manzilgohi

8. Arab raqamlari va Rim raqamlari o‘zaro mos berilgan javobni toping. (Qo‘llash – 4,5 ball)

№	Arab raqami	Rim raqami
a	2	XX
b	6	VI
c	15	XV
d	20	XXI

A) b,c B) a,b C) c,d D) a,d

9. Berilgan ma‘lumotlardan Krates (a) va Martin Bexaym (b) tomonidan yaratilgan globuslar haqidagilarini toping. (Qo‘llash – 4,5 ball)

1. Unda O‘zbekiston nomi ilk bor qo‘llanilgan;

2. O‘zida Amerika qit‘asining kashf etilishi arafasidagi Yer yuzasini aks ettirgan;

3. Dunyodagi dastlabki globus hisoblanadi;

4. Amerika qit‘asi Hind okeani janubida ko‘rsatilgan.

A) a-1, b-3 B) a-2, b-4 C) a-1, b-4 D) a-3, b-2

10. Quyidagi ma‘lumotlarni tahlil qilib, yakuniy xulosani toping. (Mulohaza –5,5 ball)

	Voqea	Natija
1	Rim davlati hukmdori Yuliy Sezar yangi kalendar joriy etdi	Yil boshi 1-yanvarga ko‘chirildi
2	Iso payg‘ambar tug‘ildi	Milodiy yil hisobiga chek qo‘yildi
3	YUNESKO tashkiloti 1999-yilda «Avesto»ning 2700 yilligini nishonlash to‘g‘risida qaror qabul qildi	2001-yilda «Avesto»ning 2700 yilligi nishonlandi

A) 1-to‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-to‘g‘ri

B) 1-to‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri

C) 1-noto‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri

D) 1-noto‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-to‘g‘ri

